

INGLIZ TILINI YOSHLARGA O'QITISH JARAYONIDA YANGICHA VA ZAMON TALABIGA MOS TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Rustamjonov Ma'zurbek Navro'zjon o'g'li

mazurbekrustamjonov@gmail.com

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Scientific supervisor: **Sattarova Dilrabo Ikramoboyevna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan maqsadli va o'rinli tarzda foydalanish hamda dars beruvchi o'qituvchining o'z ustida ishlashi va izlanishi, o'ziga bo'lgan mas'uliyatni his etishi, darslarga o'ziga xos yangiliklar kiritishi, darsni esa o'quvchi yoshlar uchun qiziqarli va jonli tarzda bo'lishini ta'minlagan holatda olib borish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, multimediya, samaradorlik, Ta'lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ta'lim standartlari va tizimlari, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: This article focuses on the purposeful and appropriate use of modern technologies in learning and teaching English, and the teacher's ability to work on himself and search for new methods, feeling responsibility for himself, introducing unique innovations to the lessons, and make the lesson interestingly and lively for the students.

Key words: technology, multimedia, effectiveness, Educational technology, telecommunication, educational system, innovational technology.

Hozirgi global dunyoda ingliz tilining obro'si butun jahon bo'yicha yuksak pog'onada turadi. Negaki, sayyoramizning gigant davlatlarida asosiy tillardan biri sifatida ingliz tili tan olinganligi boisidan, davlatlar o'rtasidagi xalqaro "MEETING" ya'ni xalqaro sammitlar va kongresslar ushbu tilda bo'lib o'tiladi. Shuning asnosida, bugungi kunda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda birmuncha shiddat bilan yuqorilab bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni ilgari duch kelmagan yangicha metod va yo'llarini hayotga tadbiq etishmoqda. Bu esa, albatta, xorijiy tillarni o'qitishda samaradorlikni oshirishga salmoqli hissa qo'shadi. Texnologiyalardan foydalangan holatda ingliz tilini o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. Shu bilan bir qatorda, u o'qitish tizimida samaradorlikni anchagina oshiradi va o'z navbatida til

o'rganayotgan yoshlarni zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga ko'maklashadi. "Texnologiya" asta-sekinlik bilan an'anaviy o'qitish tizimining o'rnini egallab bormoqda. Bugungi kunda barchamizga oydek ravshanki, televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini o'rgatishga ko'maklashuvchi yangicha dastur va ko'rsatuvlar muntazam ravishda efirga uzatib kelinmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish uchun O'zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi. Bunga namuna tariqasida aytish mumkinki, multimediya asosida xorijiy til o'rgatilayotgan o'quvchida 4 xil ko'nikmani rivojlantirish, qiziqarli materailar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchi jonli harakatlarni ko'rganida ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila olishi va uni tushinishga harakat qila olishi ham mumkin. Albatta har qanday xorijiy til darslarida zamonaviy texnologik vositalar: komputer, radio, CD, DVD kabi texnik jihozlarni qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkoniyatini beradi.

Ingliz tili darslari, balki boshqa fan o'qituvchilarining ham dars davomida ba'zi bir texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari yoki bo'lmasa bilgan taqdirda ham foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi. Buni malakaviy amaliyot vaqtida, dars berayotgan o'qituvchilarning dars o'tishi orqali ham naqadar aniq bir holat ekanligini ko'rib kuzatmoqdaman. Aynan shu sababli, ya'ni o'quvchining ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndirmaslik maqsadida dars mobaynida zamonaviy texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish o'rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Zero, o'rganuvchi shaxsning yoshiga, uning qiziqishiga hamda qobiliyatiga, shuningdek, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari, albatta, samara beradi. Aksincha, biz yaqin kelajakning bo'lajak o'qituvchilari ushbu talablar asosida o'quv materiallarini tanlamasak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab so'zlardan iborat bo'lgan video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki multimedia, komputerlar vositalari orqali namoyish etsak, o'rta va yuqori sinf yoki guruh o'rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat bo'lgan o'quv materiallarini namoyish etganimizda yosh o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'na boshlaydi va darslarni o'zlashtirishdan ko'ra dars qoldirish va darsga kirmaslik kabi holatlarga sabab bo'lishi ham mumkin. Bu esa o'z navbatida, baholarning pasayib ketishi, o'qituvchining o'quvchilar oldida o'z hurmatini yo'qotib qo'yishga olib kelishi va keyinchalik, o'quvchilar tomonidan o'z ustozlariga nisbatan hurmatsizlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Demak, bundan kelib

chiqadiki, dars davomida texnologiyalardan shunchaki foydalanish emas, balki ularni o'z o'rnida qo'llay bilish va texnologiyalardan foydalanish o'quvchi bilimni oshirishga xizmat qilishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar uchun asosiy ustuvor maqsadlardan bo'layotgan CEFR va IELTS kabi xalqaro miqyosdagi ta'lim standartlari ham shunday yuqori bir ta'lim metodikasini o'zi uchun muhim deb biladi. Aytish mumkinki, hozirgi kundagi CEFR ya'ni Xalqaro Yevropa hamda IELTS ta'lim standartlarining talablari bo'yicha to'rtta : (writing, reading, listening, speaking) ingliz tilida yozib, o'qib, tinglab, so'zlashib o'rganish kategoriyalari bo'yicha olib borilayotgan darslar mobaynida zamonaviy texnologiyalardan unumli va o'rinli foydalanish ahamiyatlidir. Masalan, "Listening" – ya'ni "tinglab tushunish" darslarida audio matnlarni qo'yib eshittirishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari mavjud. Unda asosiy maqsad o'rganuvchi eshitayotgan audio materialni tushunishi, idro eta olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishi muhim jarayon hisoblanadi. Buning uchun esa eng avvalo, muhitni audio materialni o'quvchilarga qo'yib eshittirish uchun hozirlash, bunda tinglovchilar o'zlari uchun tinch va osoyishta muhitni ta'minlashlari, o'qituvchi esa qo'yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning qay darajada ishlayotganligiga e'tibor qaratishi va audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlarning barchasi tayyor ekanligi va o'rganuvchilar tarqatma materiallar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak. Keltirilayotgan barcha talablar amalga oshirilgach, o'qituvchi audio materialni o'rganuvchilarga qo'yib eshittirishni boshlashi mumkin. Eshittiruv jarayoni kamida ikki marta amalga oshiriladi, aks holda, til o'rganuvchilar mavzuni tushunmasliklari va audio materialni eshit bo'lishgach esa bajariladigan mashqlarni to'g'ri bajara olmasliklari mumkin. Shuningdek, so'zlashib va yozib o'rganishda ham yangicha texnologiyadan foydalangan holda dars o'tish, hamda ushbu jarayonda multimedialardan foydalanib, o'rganuvchilarga video – filmlar, roliklar namoyish qilish va uni muhokama qilish juda samarali usul hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'rganuvchilarga tanish bo'lgan lug'at ishlatilishi, yangi va murakkab so'zlar ishtirok etgan bo'lsa so'zlarga izoh berish, yangi so'zlar bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajarib olingach, video materialni namoyish etish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ham albatta tinch, shovqin bo'lmagan muhit, qulay va toza sinfxona, barcha shaxs uchun tomosha qilish imkonining mavjud bo'lishi, ovoz kuchaytirgichlarning ishlayotganini tekshirib chiqish muhimdir. Videoni qo'yib berishdan avval, o'rganuvchilarga namoyish etilishi kerak bo'lgan video mavzusi haqida suhbatlashish, savol-javoblar o'tkazish, haqiqatdan ham o'rganuvchi yoshlar ushbu mavzuga qiziqishayotganliklariga amin bo'lgach video materialni qo'yib berish yaxshiroq

bo'ladi. Video tugagach esa pedagog o'quvchilarning video-film haqidagi fikrlari bilan qiziqishi, mashqlar bajartirishi ham kerak bo'ladi. Shu kabi bosqichlar to'g'ri amalga oshirilgach, bu darslar, albatta, o'rganuvchi yosh avlodning qiziqishlari va bilimlarining ortib borishiga ulkan hissa qo'shadi. Shu asnoda aytish mumkinki, dars faoliyatini yanada boyitish, o'rganuvchilarni qiziqitira olish, ularning bilimlarini boyitishda zamonaviy texnologik metodlarning o'rnini beqiyosdir. Ularni to'g'ri va o'rinli qo'llay olish esa ta'lim beruvchi o'qituvchilarga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda, til o'rganish vaqtida "muloqot" asosiy o'rin tutadi va kommunikativ tilni o'rgatish strategiyalari o'quvchilarning hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Muhokama, bahs va taqdimot kabi tadbirlarni o'z ichiga o'tkazish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari va ingliz tilini sinfdan tashqarida qo'llashda ishonchni mustahkamlashlari mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarning turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlariga ega ekanligini tan olishlari va darslarini barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirgan holatda o'tishlari zarur. Misol uchun, birinchi marotaba darsga kirayotgan o'qituvchi turli xil metodlardan foydalangan tarzda sinfdagi o'quvchilarni turli kategoriyalarga ajratib olishi ya'ni o'quvchilarning qanchadir qismi ko'rish, yana qanchadir qismi eshitish hamda harakatlar orqali o'rganishini bilib olishi va bundan keyingi darslarida zamonaviy metodlardan foydalanib dars o'tishi va o'quvchilarning konsentratsiyasini o'ziga jalb eta olishi va fanga bo'lgan qiziqishini orttirishi muhim jarayon hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchi dars jarayonida ko'ngilochar o'yinlarni ingliz tilida o'ynasagina ingliz tiliga qiziqishi ortadi va shu bilan birga ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganadi. Bolalarni o'quv jarayoniga o'yinlar va qiziqarli tadbirlar orqali jalb qilinganda ham nisbatan, yaxshiroq o'rganadilar. Masalan, "Crossword puzzle" kabi miyani rivojlantiruvchi, "Hangman" kabi onlayn o'yinlar yoki "Duolingo" kabi ilovalar bolaning nafaqat, ingliz tilini yaxshilash balki, ko'plab xorijiy tillarni o'qish va eshitish usuli orqali unga imlo va talaffuzni o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatida o'zi uchun munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz, xorijiy davlatlar bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan bir vaqtda, xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul

qilingan “Chet tillarini” o’rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o’rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Mamlakatimizda chet tilining o’qitilishi, chet tili o’qituvchilarining bilim va ko’nikmalarini baholashning umumevropaviy tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko’ra umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darsliklar yaratilib kelinmoqda . Shu sababdan ham hozirda yurtimizning har chekkasida xorijiy tillarni o’rganishga ayniqsa, ingliz tilini chuqur o’rganishga bo’lgan intilish kundan kunga oshib bormoqda. Ingliz tili fani to’rt aspektga (o’qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo’linib, ularning har biri bo’yicha alohida tushuncha va ko’nikmalar berilmoqda. Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o’rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Tilni o’rganish va o’qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o’rganishning har bir aspektida (o’qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) qo’l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta, kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o’rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o’quvchi bir paytning o’zida so’zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so’z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Xalqaro bilimni baholovchi sertifikatlar (CEFR va IELTS) ning yurtimizda keng miqyosda yoyilishi yoshlarni bee’tibor qoldirmayapti. Hozirda ham aynan, shu kabi xorijiy va milliy sertifikatga ega bo’lgan yoshlarga oliy ta’limga kirishda ham ancha foydasi tegmoqda. Ko’plab yoshlar mana shu joriy qilingan qonundan keyin, yuzaga kelgan imkoniyatdan yetarlicha foydalanishga intilmoqda. Shu jumladan, Xalqaro maqomga ega (IELTS) tavsiyanomalarini yoshlar bilimlari evaziga qo’lga kiritib, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridagi top 100 talik oliy o’quv yurtlarida o’qib, keyinchalik esa aksariyati yurtimizga qaytib, yoshlarga mavjud shart-sharoitlardan qay darajada foydalanish bo’yicha ham ma’lumotlar berishmoqda. Bugungi kunda maktablarda interfaol o’yinlar orqali dars o’tish an’anaga aylanib bormoqda. Ma’lumki, darsning turli xil o’yinlar asosida o’tilishi o’quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko’nikmalarini oshirish va kuchli bo’lishlarini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidan dars o’tish tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va turli xildagi metodlardan foydalanish yosh

o'rganuvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va ko'proq bilim olishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, maktab va bog'cha tizimidagi bolalarda ikkinchi tilni o'rganishga qiziqtirish va ularga yetarlicha imkoniyat yaratish orqali yaxshi kadrlarni yetishib chiqishiga yordam beradi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'rganuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. PQ 1875 "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror. "Xalq so'zi" gazetasi, 2-bet. 2012 yil, 10-dekabr.
2. Boswood, T. (1997). *New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II)*, California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
3. Harmer, J. (2007). *How to teach English*, Harlow, Essex: Pearson-Longman.
4. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). *Learning and Teaching Information Technology-- Computer Skills in Context*, East Lansing, Mi, Eric document ED465377, Retrieved June 7, 2007, from <http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm>.
5. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil Otaboeva, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi /
6. M. P. Otaboeva. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020) 844
7. Honkeldieva, M., Talipov, S., Mardanov, R., & Ibragimov, B. (2015). *Molecular and crystal structure of gossypol tetramethyl ether with an unknown solvate*. *Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications*, 71(2), 184-187.
8. Валиева, Н. (2023). Туркистонда Бошқарув Тизими Адабиётлар Таҳлилида. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19).
9. Honkeldieva, M., Kunafiev, R., & Hamidov, H. I. (2015). *Redetermined structure of gossypol (P3 polymorph)*. *Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications*, 71(7), o442-o443.
10. Abdumajitovna, V. N. (2023). *Russian Colonial Policy In Turkestan-Establishment Of A Centralized Administrative System*. *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12(01), 54-57.

11. Valieva, N. (2020). *King Ғантәуәдәм's land charter: state of the art and new perspectives.*
12. Honkeldieva, M., Bukhorov, K., Sayfiyeva, M., & Choriyeva, G. (2023, March). *Study on the clathrates and polymorphes of plant polyphenols. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012068). IOP Publishing.*
13. Ruziev, S., Honkeldieva, M., Bukhorov, K., & Sayfiyeva, M. (2023). *Spread, damage and control measures of powdery mildew disease of grain crops. In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 02011). EDP Sciences.*
14. Honkeldieva, M. T., Talipov, S. A., Kunafiyev, R., & Ibragimov, B. T. (2015). *Crystal structure of bis-p-anizidinegossypol with an unknown solvate. Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications, 71(12), 1421-1424.*
15. Khojamkulova, Y., Honkeldieva, M., & Choriyeva, G. (2023). *Effect of abiotic stresses on the physiological characteristics of rice (Oryza sativa). In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 05002). EDP Sciences.*
16. Honkeldieva, M. T., Talipov, S. A., & Ibragimov, B. T. (2015). *Gossypol inclusion compound with pyrazine: crystal structure and thermal behavior. Journal of Inclusion Phenomena and Macrocyclic Chemistry, 83, 369-375.*